



NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA RAMZ

Abbos UMURZOQOV,
GulDU O'zbek adabiyotshunosligi
yo'nalishi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14716035>

ARTICLE INFO

Received: 17th January 2025
Accepted: 19th January 2025
Published: 22nd January 2025

KEYWORDS

Nazar Eshonqul, ramz, hikoya, modern, maymun, qo'l, tobut, me'mor, xayol.

ABSTRACT

Ushbu maqolada istiqlol davrining mukammal hikoyanavisi, o'zining hikoyalari bilan adabiyotni birmuncha qo'zg'ata olgan. Nazar Eshonqul ijodi, hikoyalaridagi obrazlarning, yashirin ma'no va ramzlari hikoyalarining tahlili obrazlari va ijodidagi ramziylik haqida so'z bo'radi.

Nazar Eshonqul bugungi davr adabiyoti uchun yangilik olib kirgan ijodkorlardan biridir. Istiqlol davri adabiyotini yuqori pog'onalarga olib chiqqan yozuvchi sifatida uning ijodi yuqori baholanadi. Nazar Eshonqul hikoyalari biz shu paytgacha o'qigan hikoyalardan boshqa ekanligi bilan farq qiladi. Uning ijodi, umuman, XX asr adabiyotiga o'xshamaydi. Hikoyalarda yangilik, yangicha ruh balqib turadi. Nazar Eshonqul haqida O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'ofurov shunday deydi: "Nazar Eshonqul, mening nazarimda, bizning o'zbek adabiyotida dunyo adabiyotlarining eng ilg'or oqimlari va usullarini chuqur o'rgangan va o'z asarlarida targ'ib qilgan". Professori Bahodir Holiqov esa quyidagi fikrlarni bildirgan: "Nazar Eshonqul asarlari orqali Yevropa, shuningdek, Lotin Amerikasi yozuvchilarining asarlarini ham to'g'ri tushunish, ularning asarlarini anglash, his etish imkoniyatiga ham ega bo'lamiz". Ushbu fikrlar uning ijodi qanday salmoqda ekanligini ko'rsata oladi. Uning hikoyalari bugungi davr uchun yozilgan yangicha ruh va ma'noga ega bo'lgan yangi izlanishlar desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ijodkorning **"Qo'l", "Maymun yetaklagan odam", "Tobut", "San'at", "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Ozod qushlar"** kabi hikoyalarida o'ziga xoslik sifatida yozuvchi dunyosidagi yangicha fikrlash hamda adabiyot doirasidagi yangicha ramziylikni ko'rishingiz mumkin.

Ramz nima? *Ramz* – yunoncha so'zdan olingan bo'lib, muayyan obraz yoki tushunchani timsol orqali tasvirlash degan ma'noni bildiradi. Endi Nazar Eshonqul hikoyalaridagi ramzlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning hikoyalarining har biri o'ziga xos ramziylikni ifoda etadi, ayniqsa, yozuvchining "Qo'l" hikoyasini dastlab tahlil etadigan bo'lsak, butun boshli hikoyada begona qo'l haqida fikr yuritiladi. Ammo qayerdandir paydo bo'lgan qo'lning kimniki ekanligiga hech bir yechim topilmaydi. Tandirchining xonadoni esa tez fursatda **"taftishxonaga"** aylanib ketadi. Shu bir qo'l ortidan esa tandirchi qanchadan- qancha xarajatlar-u chiqimlarga qoladi. Ammo ushbu hikoyada qanday ramziylik bor degan savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin. Qo'l bu aslida arzimagan narsani bahona qilib oddiy xalqning bisotini yulayotgan amaldorlar obrazi emasmikin?

O'zi oddiy bir tandirchilik ortidan zo'rg'a kun ko'rayotgan xonadonni shu ahvolini ham taftishga tortgan zamon va davr ramzi emasmikin? Axir mehnat bilan topilgan bir burda nonning ham hisobi borligi shu hikoya orqali ifoda etilgan. Nazar Eshonqulning "Ozod qushlar" hikoyasi ham kishini o'yga toldiradigan hikoyadir. Ushbu hikoyani o'qir ekansiz,

kitobxon nazarida bu voqea tushmi yo o'ngmi degan fikr qiynaydi. Chunki voqealar rivoji shu darajada qiziqki, hikoyani oxiriga yetkaningizda siz istagan tugallanma topilmaydi. Balki hikoya oxirida siz qahramon yigit o'z kelajak taqdirini tushida ko'rdi deb o'ylarsiz? Ammo tugallanma bunday tugamaydi. Ushbu hikoyadagi ramziylik shundaki, inson xayolot dunyosi bepayon ekanligi gohida siz juda qattiq xohlagan narsalar ro'yodek ko'z oldingizdan o'tib ketishi tasvirlangan. Bu hikoya orqali siz yozuvchining haqiqatdan ham modernistic yo'nalishda ijod qiluvchi ijodkor ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lasiz.

Shu hikoya orqali Nazar Eshonqulning "boshqacha yozish" qobiliyati borligini tushunib yetasiz. Ammo "Ozod qushlar" hikoyasida yana bir yashirin ramziylik borki, bunda davr va zamonning holatidan kelib chiqib, yozilgan insonning ruhiy ozodlikka erishuvi haqida ham so'z bormadimikan degan xayol sizni chetlab o'tmaydi. Ijodkorning mashhur hikoyalardan biri bo'lgan "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi ham insonni birmuncha o'yg'a toldiradigan, fikrlashga undaydigan hikoyadir. Ushbu hikoyada surat obrazi asosiy o'rinda turadi. Va undagi maymun obrazi esa asosiy ramz bo'lib xizmat qilgan. Yozuvchi nega aynan Maymun obrazini tanlagani esa maymun jamiyat ramzi sifatida ko'rsatilganidadir. Ch. Darwin ta'limotiga ko'ra inson maymundan yaralgan deb ham aytiladi. Aslida esa aksincha, gunoh ishlari bilan Allohning qahrini keltirgan insonlar qavmi maymunga aylanib qolgan. Va kishilar bunga shubha qilmaydi. Yana Norbekova Anoraning shunday fikrlari bor: "O'sha davr va zamondan kelib chiqqan holda insonlarning jamiyatga tobeligi chorasiz xalqning mute bo'lib qolishi ramziy obrazlar bo'lmish maymun va chol orqali ifoda etiladi".

Ushbu hikoyaning boshlanmasi va tugallanmasini o'qir ekansiz, ko'zlarida ishonch balqigan yigitning hikoya so'ngida ishonchsiz va mute chol obraziga aylanganiga guvoh bo'lasiz. Aslida hikoyada batafsil keltirilgan cholning hayoti uning adolat va ishonchni har narsadan ustun qo'ygani butun umrini hukumatga bag'ishlagani, hukumat xizmati yo'lida barcha narsadan voz kechganligini, va oxir-oqibat adashganini shu tuzum va hukumat unga xiyonat qilganini tushunib yetgan inson obrazini ko'rishimiz mumkin. Ammo hikoyadagi rasm timsoli esa go'yo chol uchun kelajak avlodga qoldirilgan bir meros va hikoya bo'lib xizmat qiladi. Chunki hikoya boshidagi ishonch va umid hikoya so'ngida ishonchsizlik, mutelik va umidsizlikka aylangan surat qiyofasida edi. Shuning uchun ham yozuvchi ushbu hikoya mazmunini yoritishda rasm va maymun obrazlaridan foydalangan deyish mumkin. Bundan tashqari yozuvchining "Tobut" hikoyasi ham o'ziga xoslikka ega bo'lib, aslida inson bu dunyoda kelib ketguvchi ekanligi, ramziy obraz bo'lmish birgina tobut orqali yuqori pag'onada tasvir etilgan.

Ammo hikoyaning kulminatsiyasi esa bu – Maoz qabristoni va undagi bashoratchi me'mor obrazidir. Bunda me'mor insoniyatni kelajak ofatlaridan go'yoki xabardor etadi. Shuning uchun ham ushbu hikoyada asosiy ramz sifatida tobutga murojaat qilingan.

Nazar Eshonqul ijodi juda salmoqlidir. U o'zining hikoyalari orqali jamiyat va undagi nuqsonlar, insonlar ruhiyatidagi nosog'lomliklar, jamiyatning qaysidir ma'noda orqada qolganligi ko'rsatib bergan. Har bir hikoyadagi obraz va detallar shunchaki emas, balki nimanidir ko'rsatish va isbotlashga qaratilgandir. Shuning uchun ham yozuvchi va uning ijodi adabiyot ixlosmandlari tomonidan iliq kutib olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ulug'bek Hamdam. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – T.: 2020.
2. Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi. Mendan-mengacha. – T.: 2018.
3. Nazar Eshonqul. Tobut. – T.: 2018.
4. Makhmidjanov S. (2021). ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE EDGES OF THE HUMAN PYSCH. *internauka*.(15,3), 75-76.
5. Kholbekovna, F.O. (2022). The artistic-aesthetic nature of rauf parfi's poetry. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 332-340.
6. Kholbekovna, F. O., & Dehqonovna, D. G. (2020). The Hero Issue In The Lyrics. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(8), 3409-3413.

7. Fayzullayeva, O. (2024). THE ISSUE OF FORM AND CONTENT IN LYRIC CYCLES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(1), 55-60.
8. Fayzullayeva, O. (2023). LYRIC IMAGE OF" I" IN CYCLES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(6 Part 3), 118-125.
9. Kholbekovna, F. O. (2021). The issue of artistic idea in poetry. *European Scholar Journal*, 2(4), 233-236.
10. Mamatkulov, M., & Fayzullayeva, O. (2024). Expression Of Symbols And Allegorical Images In Lyric Cycles. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-7.
11. Fayzullayeva, O. (2022). General Typological Characteristics Of Lyric Cycles. *Science and innovation*, 1(B5), 231-236.
12. Musayeva, S. I. (2024). KURSANTLARNING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMEDIA VOSITALARINING O'RNI. *Ustozlar uchun*, 28(2), 98-103.
13. Ibrohimovna, M. S. (2019). BASICS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES THROUGH INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE IN MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
14. Xolbekovna, F. O. (2021). POETICS OF UZBEK CYCLE SONNETS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 394-402.



INNOVATIVE
ACADEMY